

AKSIYADORLARNING UMUMIY YIG'ILISHI O'TKAZILISHIGA OID BILDIRISH

HURMATLI AKSIYADORLAR!

“O‘zbektelekom” AK aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishini 2024-yil 28-iyun kuni soat 13:00 da masofadan turib <http://evote.uz> – elektron ovoz berish platformasi orqali quyidagi kun tartibida o‘tkaziladi:

1.	“O‘zbektelekom” AK aksiyadorlarining umumiy yig‘ilishi reglamentini va Sanoq komissiyasi tarkibini tasdiqlash.
2.	“O‘zbektelekom” AK Kuzatuv kengashining 2023-yil yakunlari bo‘yicha hisobotini tasdiqlash.
3.	“O‘zbektelekom” AKning 2023-yil yakuni bo‘yicha moliyaviy-xo‘jalik faoliyati to‘g‘risidagi hisobotini tasdiqlash.
4.	“O‘zbektelekom” AK tomonidan yirik bitim tuzilishi.
5.	“O‘zbektelekom” AKning 2023-yil natijalari bo‘yicha sof foydasini taqsimlash va dividendlar to‘lash to‘g‘risida.
6.	“O‘zbektelekom” AKning rivojlantirish strategiyasiga erishish bo‘yicha ko‘rilayotgan chora-tadbirlar to‘g‘risida hisobot.
7.	“O‘zbektelekom” AKning Korporativ boshqaruv tizimini holis baholovchi tashkilot tomonidan o‘tkazilgan baholash natijalari to‘g‘risida.
8.	“O‘zbektelekom” AK kundalik xo‘jalik faoliyatiga kiradigan xizmatlar va ishlab chiqarish mahsulotlari ro‘yxatini tasdiqlash.
9.	“O‘zbektelekom” AKga affillangan shaxslar bilan kelgusida Kompaniya tomonidan kundalik xo‘jalik faoliyati jarayonida Aksiyadorlarning keyingi yillik umumiy yig‘ilishigacha bo‘lgan davrda tuzilishi mumkin bo‘lgan bitimni (bitimlarni) ma‘qullash.
10.	“O‘zbektelekom” AK Ijroiya organining ishlab chiqarishni mahalliyashtirish, sanoat kooperatsiyasini rivojlantirish va importni qisqartirish bo‘yicha 2023-yilda amalga oshirilgan ishlar to‘g‘risidagi hisoboti.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishini o‘tkazish to‘g‘risida aksiyadorlarga xabar berish uchun aksiyadorlarning ro‘yxati 2024-yil 5-iyun holatiga, shuningdek umumiy yig‘ilishida ishtirok etish huquqiga ega aksiyadorlarning ro‘yxati 2024-yil 24-iyun holatiga tuziladi.

Aksiyadorlarning umumiy yig‘ilishi qatnashchilarini ro‘yxatga olish 2024-yil 28-iyun kuni soat 10:30 dan 12:50 gacha amalga oshiriladi.

Aksiyadorlar umumiy yig'ilishida qatnashish va ovoz berish uchun shaxsni tasdiqlovchi hujjat yoki aksiyadorlarning vakillarida o'rnatilgan tartibda rasmiylashtirilgan ishonchnoma bo'lishi lozim.

Shuningdek, Aksiyadorlar umumiy yig'ilishi kun tartibidagi masalalar bo'yicha masofadan turib ovoz berish Elektron raqamli imzo (ERI) yordamida www.evotuz.uz veb-sayti orqali amalga oshiriladi.

Ma'lumot uchun telefonlar: (71) 100-01-14, (71) 100-01-15